

# МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕҢДИРИҮ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**1/1-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Nusratova H. Ch. Ilmiy-ommabop matn va maqlolarning janriy xususiyati hamda ifoda usullari	6
Rustamova Z. Dialektal korpus korpus lingvistikasining o'rganish ob'ekti sifatida	16
Bakiyeva H. S. Ona tili ta'limdi o'quvchilarning matn ustida ishlash va matn yararish ko'nikmalarini shakllantirish	21
Рамазанова Р. А. Технология критического мышления на уроках русского языка и литературы	27

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Ibadullayev Q. M. O'rta talimga innovatsiyalarni joriy etishning mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati	34
Xolmatova S. K. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilar organizmining funksional holatini baholash uslubiyati	38
Narimbaeva L. K. Talabalarni intellektual-ijodiy qobiliyatini pivojlan tipishning muhim xususiyatlari va komponentlari	44
Rustamov L. X. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirish jihatlari	51
Tursaotov A. E. Uzluksiz pedagogik amaliyotni tizimlashtirishning pedagogik shartlari	55
Mirzakarimova M. M. O'quvchilarning tadbirdorlik ko'nikmalarini rivojlanтирishda chil texnologiyalari	60
Jumanova F. U. Dars- ta'llimi taskil etishning asosiy shakli	64
Обидов А. Э., Джурاءв А. С. "Адаптив таълим" ходисаси ва унинг ўзига хослиги	69
Бозорова М. Қ. Ўкучи-ёшларнинг миллий-маънавий тарбияси ривожланишида этнопедагогик гоялардан фойдаланиш	82
Yarashev A. N. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida o'quvchilarda ijtimoiy faoliik ko'nikmalarini rivojlanтирishning didaktik ta'lomi	86
Otamurodova Sh.Q. Diversifikatsiya tamoyilining talabalar kreativ potensialini yuzaga chiqarishdag'i o'rni	92
Mamanazarova N. K. Xalq ta'llimi tizimi boshqaruvida marketing xizmatlarini taskil etish mexanizmi	100
Egamberdiyeva M. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy rivojlanish kompetentsiyasini shakllantirish usullari	107
Шерматов Б. Б. Педагогические условия реализации модели социально-профессиональной адаптации курсантов	112
Нигманов Б. Б. Формирование здоровьесберегающей модели поведения студентов в период дистанционного обучения	117
Мухамеджанов Ш. М. Педагогические основы формирования ценностного отношения школьников к здоровому образу жизни	122
Нурманова Н. Қ. Применение интегративного модульного обучения как метода повышения качества образования	129

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ,  
ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Алтинов И. И. Ўзбекистонлик тиббиёт ходимларининг иккинчи жаҳон уруши йилларида кўрсатган жасорати (Қорақалпоғистон фарзанди, ҳарбий врач, захирадаги подполковник, профессор, Заиров Қаюм Сабирович хақида)	135
Давлетбоев Д. Е. Қорақалпоқ халқининг лочини	141



## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Asanova U. S.</b> Tálimde xabar texnologiyalar páninde talabalardıń óz betinshe jumislarin shólkemlestirildiń ózine tán ózgeshelikleri .....	148
<b>Isaqov J. A.</b> Grafik ta'lím samaradorligini oshirishda yagona grafikaviy tartibning ta'limiyları imkoniyatlari .....	152
<b>Isaqov J. A.</b> Umumiy o'rta ta'lím tizimida o'qitiladigan o'quv fanlarida qo'llaniladigan grafik tasvir turlari .....	157
<b>Polotov K. K.</b> To'g'ri chiziq va tekislikning perpendikulyarligi va ikki tekislikning o'zaro perpendikulyarligi .....	162
<b>Тургунбаев Р. М., Алламбергенов И. Х., Аллаберганов Б. И.</b> Бўлгуси математика ўқитувчиларининг назарий тафаккурини шаллантиришда ўкув тезаурусидан фойдаланиш .....	167
<b>Azatova S. N.</b> Tenglamalarni yechishga o'rgatishda o'quvchilarida tartibga solish universal o'quv harakatlarini shakllantirish haqida .....	173

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ

<b>Shanasirova Z. Y.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash hamda nutqini rivojlantrish yo'llari .....	179
<b>Xurvaliyeva T. L.</b> Maktabgacha ta'limdä art-texnologiyalardan foydalanish .....	185
<b>Abdullayev A. A.</b> Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari .....	189
<b>Teshabayeva Z. S.</b> Bolalar rivojlanishida ijtimoiy institutlarning ro'li .....	194
<b>Nosirova R. X.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotining oila, mакtab va mahalla bilan hamkorligining klasterli yondashuvlari .....	198
<b>Xidoyatova N. A.</b> Maktabgacha ta'limdä qo'llaniladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi .....	204
<b>Karimjonova D. A.</b> Maktabgacha ta'lím muassasalarda tarbiyalanuvchilarni ijodkorligini rivojlantrishning interaktiv metodlari .....	208
<b>Tursunboyeva M. D.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilm fan va tabiat" markazida bolalarni tabiat bilan tanishtirish shakllari .....	213
<b>Abdijabborova S. Q.</b> Milliy harakatlari o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini ahloqiy tarbiyalash .....	218
<b>Soatov E. M.</b> Harakatlari o'yinlar klasteri sharoitida amaliy ko'nikmalarini shakllantirish jihatlari .....	222
<b>Abdijabborova S. Q.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilari harakat faoliyatini jismoniy vositalar orqali shakllantirish muammolari .....	227
<b>Ismanova M. A.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof- muhit va uning muammolari .....	231
<b>Atabekov F. O.</b> Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi .....	237
<b>Buriyeva A.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida "ilk qadam davlat dasturi" asosida o'yinlar orqali bolalarning qobiliyatlarini rivojlantrish .....	241
<b>Ilesova L. A.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida tarbiyachining tutgan o'rni .....	244
<b>Abduraximov D. D.</b> Bolalarning muvozanat qobiliyatini shakllantirishda maxsus jismoniy mashqlar komplekslaridan foydalanish .....	248
<b>Azamatova D. Sh.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida markazlar faoliyatini tashkil etishda steam texnologiyasini qo'llashning ahamiyati .....	252
<b>Kodjaxanova K. X.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirish muammolari .....	257
<b>Ilesova L. A.</b> Maktabgacha ta'lím tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish .....	261
<b>Abdullayeva L. U.</b> Bo'lajak tarbiyachilarda akmeologik yondashuv asosida ta'lím jarayonini tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish .....	267



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА ART-TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Xurvaliyeva T. L.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

**Tayanch so‘zlar:** artpedagogika, arterapiya, zo‘riqish, psixoterapiya, ertak terapiya, qum terapiya, densterapiya, suv terapiya, integratsiyalash, potensial, ijod, bo‘yoq, plastilin, psixik salomatlik, tasviriy faoliyat.

**Ключевые слова:** артпедагогика, арттерапия, напряжение, психотерапия, сказкотерапия, песочная терапия, денситерапия, водолечение, интеграция, потенциал, творчество, краски, пластилин, психическое здоровье, изобразительная деятельность.

**Key words:** art pedagogy, art therapy, tension, psychotherapy, fairy tale therapy, sand therapy, densotherapy, hydrotherapy, integration, potential, creativity, paints, plasticine, mental health, fine arts.

**Kirish.** Buguni kunda art-texnologiya pedagogika va psixologiya sohasidagi dolzarb masala sanaladi. Bolalarning psixik salomatligi pedagog va psixologlar, ota-onalarda jiddiy xavotirni uyg‘otmoqda. Bolalarda va katta yoshdagilarda nevroz holatini ortib borishi turmush tarziga, ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishlarga salbiy ta’sir ko‘rsatyapdi, jahldorlik, havotirlanish kabi hissiyotlar yuz beryapdi. Bularning barchasi samarali psixologik-pedagogik usul va vositalarni izlash, negativ hodisalarni oldini olishni taqozo etadi. Bolalarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish, ijodkorlik va ular o‘rtasidagi muloqotchanlikni namoyon etishga undaydi. Art-texnologiya bu-kreativlikni namoyon etish, bola shaxsni har tomonlama rivojlantirish va turli xil muammoni yechishni ta’minlaydigan zamonaviy yondashuvlardan biri deyish mumkin [6; 127c]. Biroq, mazkur yo‘nalishning paydo bo‘lishi bir asrdan kam emas. Ilk boshlangan davrida faqat tasviriy faoliyat orqali bolalarni davolash amalga oshirilgan. Asta-sekin, musiqa, raqs, qum terapiyasi, loy va plastilin, ertak terapiya metodlari qo‘srimcha ravishda kiritilgan. Mazkur soha bolalarning psixik holatini korreksiya qilish, ulardagи ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf etishni ko‘zda tutadi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Art-terapiya bolalarning psixik sog‘ligini rivojlantirish va korreksiya qilishda eng samara beradigan usullar majmuidir. Art-terapiya termini 1942 yilda Britaniyalik rassom Adrian



Xill tomonidan yaratilgan. Unga sil kasali bilan kurashish jarayonida rasm chizish yordam bergenini his qilgan. Uning ta'kidlashicha, ijod qilish vaqtida aql faoliyat bilan mashg'ul bo'ladi, boshqa jarayonlardan chetga chiqadi. Keyinchalik olim yonidagi bemorlarga ham rasm chizish orqali shifolanishlari mumkinligini tavsiya etadi. Mana shunday tarzda psixoterapiya yo'nalishi vujudga kelgan. 1964-yilda uning yordami bilan birinchi Britaniya Art-terapevtlar assosiasiyasiga asos solindi. Artpedagogikaning mazmuni bolalarning idroki va o'z hissiyotlarini ifodalashi, kommunikativ ko'nikma va malakalarni rivojlantirishni ifoda etadi [7;57 c] Ya'ni art texnologiya-redagogika va san'atni integratsiyalashuvdir. Pedagogikaning mustaqil bir sohasi bo'lib, san'at vositasida shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishdir.

Mazkur texnologiyani qo'llash natijasida bolalar va ularga muammolar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan hayotiy vaziyatlardan chiqish yo'llari topiladi, masalan: depressiya, fobiya, nevroz, energiya va qiziqishlarni so'ndiradigan holatlar bartaraf etiladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida ushbu texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning ichki dunyosi va erkinligini rivojlantirish, o'z-o'zini namoyon etish va shaxsiy yutuqlarga erishishlari ta'minlanadi. Bolalarda potensial imkoniyatlar faollashadi, ruhiy toliqish bartaraf etiladi. Mashg'ulot jarayonida bolalar tafakkurida o'zgarishlar yuz beradi, o'zi uchun muhim bo'lgan muammoga yechim topadi.

Art-texnologiyada bolalarga nima tegishli bo'lsa, o'sha amalga oshadi. Shuningdek, terapevtik ta'sir natijasida tafakkur va intellekt rivojlanadi, ijodkorlik namoyon bo'ladi. Hissiy zo'riqishdan xalos bo'ladi, kayfiyat yaxshilanadi, o'zining hissiy holatini tushunadi, boshqalarning emosional vaziyatlarda qanday tutishini anglaydi, negativ (salbiy) fikrlarni pozitivga transformasiya qiladi, o'z-o'zini va shaxsiy qarashlarini ifodalay oladi, yosh krizisini yenga oladi. Bolalikdanoq go'zallikni eng mayda elementini ham ko'ra oladi, ijodiy potensiali rivojlanadi. Bolalar o'z-o'zini tushunadi, anglaydi, atrof olam bilan tanishadi, shaxs sifatida rivojlanadi va ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradi [3; 76 c].

Hozirgi vaqtida maktabgacha ta'lim jarayonida art-texnologiyaning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin:

- rasm chizish-tasviriy faoliyat;
- fototerapiya (rasmlardan kollaj yaratish );
- musiqa terapiya (musiqa tinglash);
- qumda rasm chizish;
- ertak terapiya;
- densterapiya (raqs mashg'ulotlari);



– qo‘g‘irchoq terapiyada turli vaziyatlarni ko‘g‘irchoq teatri yordamida sahnalashtiradi.

Raqs va harakat terapiyasi-bunda bolalar musiqa ostida harakatlanadi, natijada emosional va jismoniy holati yaxshilanadi. Agarda inson harakat qilsa yoki yugurish mashqini bajarsa, kayfiyat ko‘tariladi. Buning muhim sababai endorfin gormonida bo‘lib, harakat vaqtida uning ishlab chiqish tezlashadi. Natijada bolada nafaqat, kayfiyat ko‘tariladi, u muloqotchan va xushmuomala bo‘ladi. Ushbu terapiya turini oilada ham qo‘llasa bo‘ladi.

**Natijalar.** Art-teknologiya bolalarda emosional va kommunikativlikni rivojlantiradi, sensorikani rivojlantiradi, idrok, ixtiyoriy diqqat, xayol, nutq, mayda motorika,kommunikasiya, produktiv faoliyat shakllanadi, motivasion ehtiyojlarni rivojlantiradi. kafolatlanadi, eng muhimi shaxsiy sifatlari rivojalanadi. Ijodiy faoliyat natijasida ichki xavotirlari ifodalananadi va bartaraf etiladi. Ijodiy faoliyat orqali ta’limiy resurslar yaratiladi. Tasviriy faoliyatni art-pedagogik yondashuv asosida tashkil qilish, bolalarni hissiy holatini barqarorlashtiradi, idrok qilish imkoniyatini kengaytiradi, kommunikativ ko‘nikma, malaka va axloq-odob me’yorlari shakllanadi.Shuningdek, psixologik-pedagogik bilimlar integrasiyalashadi.

**Xulosa va takliflar.** Art-pedagogika quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

1. O‘quv jarayoni osonlashtiradi va bola-tarbiyachi munosabatini yaxshilaydi. Bilimlarni badiiy va ijodiy faoliyat yordamida o‘zlashtirishni ta’minlaydi hamda ko‘rish, eshitish va teri tuyush sezgilari rivojlanadi. Noverbal muloqot vositasida o‘qitish samarali natija beradi.

2. Turli xil salbiy hislar, jahldorlik, xavotirlanish kabilarni oldini olishda ijtimoiy jihatdan qulay yo‘l ekanligi bilan tavsiflanadi.

3. O‘quv materiallarini interpretasiya qilishga imkon yaratadi va tarbiyalanuvchilarни tashxislash va umumiy xulosa chiqarishga yordam beradi.

4. Tarbiyachi va bolalarni ma’naviy-ruhiy tajribalariga tayangan holda o‘quv materiallarini qayta ishlashga imkon beradi. Bilim, ko‘nikma va malakalarни mustahqamlaydi.

Bundan tashqari bolalar o‘z-o‘zini anglash, boshqarish malakasiga ega bo‘ladi. Ekologik ta’lim oladi, tabiatning bir bo‘lagi ekanligini his qiladi.

Agarda art-terapiya texnologiyasini tizimli ravishda tashkil etilmasa natija samarali kechmaydi. Shuning uchun mashg‘ulotlar reja asosida va tartib bilan amalga oshirilishi kerak. 3-4 yosh bolalarga haftada 1-2 marta, 5-6 yosh bolalarga haftada 2-3 marta olib boriladi. Art-terapiya vaqtida va keyin diagnostika qilib boriladi. Agarda bolalarda natija va o‘zgarish yuz bersa,



metodlarni almashtiradi va bola bilan ishlashning intensiv shaklini qo'llaydi. Qaysi art-terapiya turlaridan foydalanish esa, bolaning xoxish va qiziqishiga bog'liq. Mazkur texnologiya turlarini tatbiq etish orqali bolalarni ta'lim olish motivasiyasi oshadi, ta'lim sifati va samaradorligi kafolatlanadi.

### **Adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019 yil 16 dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y.
2. Валиев С. Сказки для всей семьи. Арт-педагогика на практике. М.:2014-140с.
3. Колягина В.Г. Арт-терапия и арт-педагогика для дошкольников. Учебно-методическое пособие М.: Издательство: Прометей. 2016-150 с.
4. Колягина В.Г. Музыко-терапия в специальном образовании. Учебно-методическое пособие.М.:2019-140с.
5. Колягина В.Г. Психология страхов дошкольников. М.:2016-50 с.
6. Журавлева Ж.И., Павлова А.С. Медведева Е.А. и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании 2-е изд., испр. и доп. Учебник для СПО.М.:2018-275 с.
7. Медведева Е.А и др. Артпедагогика и арттерапия в специальном и инклюзивном образовании: учебник для вузов. 2-е изд., испр. и доп. Москва.: Издательство Юрайт, 2023. 274 с.

### **РЕЗЮМЕ**

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda artpedagogika va art-technologiyalarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Artpedagogikaning ilmiy-metodik jihatlari yoritilgan. Bolalardagi ruhiy zo'riqishni bartaraf etishda artterapiyaning afzallik tomonlari borasidagi fikrlar bayon etilgan. Artterapiya turlari va ularni amaliyotga tatbiq etishga oid tavsiyalar berilgan.

### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье рассматриваются о значении арт-педагогики и арт-технологий в воспитании дошкольников. Освещены научно-методические аспекты артпедагогики. Представлены мнения о преимуществах арт-терапии в снятии психического напряжения у детей. Даны виды арт-терапии и рекомендации по их проведению.

### **SUMMARY**

This article discusses the importance of art pedagogy and art technologies in the education of preschoolers. The scientific and methodological aspects of art pedagogy are highlighted. Opinions about the advantages of art therapy in relieving mental stress in children are presented. The types of art therapy and recommendations for their implementation are given.



Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық  
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

## «МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИҮЙ»

№ 1/1

Нөхис — 2023

Басып шығыўға жуўапкер:

*A. Тилегенов*

Баспаға таярлаған:

*A. Тилегенов, Р. Утепов*

Компьютерде таярлаған:

*П. Реймбаев*

**Мәнзил: Нөхис қаласы, Ернаzar Алакөз көшеси №54**

**Тел.: 224-23-00**

**e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,**

**mugallim-pednauk@mail.uz**

**www.mugallim-uziksiz-bilim.uz**

**Журналга келген мақалаларға жууап қайтарылмайды, журналда жергияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзлиksiz bilimlenдириүй» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген маглұйматтарға автор жууапкер.**

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 18.01.2023. Форматы 70x100<sup>1/8</sup>  
«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 52,5 . Нашр. т. Нусқасы \_\_\_\_\_ Бүйыртпа №